



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusuf, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikaeva, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

joylashgan maydoncha yon chekka tosh bilan ajratib qo'yiladi. Yo'l qatnov qismining chetidan yon chekka toshgacha bo'lgan oraliq I va II toifa yo'llar uchun 0,75 m, III toifa yo'llar uchun esa kamida 0,50 m bo'lishi kerak.

Dam olish maydonchalarida yengil avtomobillar turadigan zonani imkoni boricha bitta, ikkita va uchta avtomobilga mo'ljallangan blok joy ko'rinishida loyihalash, dam olish sharoitini yaxshilash uchun bosh planda ularni alohida joylashtirish kerak.

Manzara chiroyli, ichimlik suvi bor, hojatxona qurilgan, bufet, savdo nuqtasi, yuvish imkoniyati bor maydonchalar to'liq ishlatiladi. Hojatxonalar kamida 15-20 km oraliqda o'rnatiladi. Agar xizmat korxonalari, AYoQSh, restoran va hk. hisobiga bu shart bajarilmasa, ular dam olish maydonchalarida ko'zda tutilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.S.Sodiqov, Q.X.Azizov, A.X.O'roqov Avtomobil yo'llarini obodonlashtirish va jihozlash. TAYLQEI Toshkent-2018 52-56 bet.
2. Babkov V. F. Sovremennyye avtomobilnyye magistrali. - M.: Transport, 1984. - 280 s.
3. Sardarov A. S. Arxitektura avtomobilnyx dorog. — 2-ye izd.,
4. pererab. i dop. — M.: Transport, 1993. — 272 s.
5. Sharov, A.Yu. Dorojnyy servis: ucheb. Posobie. FGBOU VO «Uralskiy gosudarstvennyy lesotexnicheskiy universitet», 2018.

UY-JOY QURILISHIDA INVESTITSİYALARNI BOSHQARISH

SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

F.S. Atadjanova

TAQU katta o'qtuvchisi

N.B. Allasugirov

TDIU tayanch doktornati

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda uy-joy qurilishida investitsiyalarni boshqarish samaradorligini oshirish masalalari rasmiy statistika va xalqaro manbalar asosida

tahlil qilindi. Natijalar investitsiya hajmining keskin oshganini, ipoteka bozorida barqaror o'sish kuzatilayotganini ko'rsatadi. Tavsiyalar sifatida moliyalashtirish diversifikatsiyasi, PPP mexanizmlarini rivojlantirish hamda resurs tejamkor texnologiyalarni moliyalashtirish zarurligi qayd etildi. Kalit so'zlar: uy-joy qurilishi, investitsiyalar, ipoteka, PPP, yashil iqtisodiyot.

Аннотация

В статье анализируются проблемы повышения эффективности управления инвестициями в жилищном строительстве Узбекистана на основе официальной статистики и международных источников. Отмечается рост инвестиций и ипотеки, а также необходимость диверсификации источников финансирования, развития ГЧП и «зелёных» технологий.

Abstract

This paper analyzes the efficiency of investment management in Uzbekistan's housing construction sector, based on official statistics and international sources. The results show a sharp increase in investment and stable growth in the mortgage market. Key recommendations include financing diversification, development of PPP mechanisms, and promotion of resource-efficient technologies.

Ключевые слова

жилищное строительство, инвестиции, ипотека, ГЧП, зелёная экономика.

Keywords

housing construction, investments, mortgage, PPP, green economy.

Kirish (Introduction)

So'nggi yillarda O'zbekistonning iqtisodiy siyosati uy-joy qurilishi sohasini milliy rivojlanishning muhim drayverlaridan biriga aylantirdi. Urbanizatsiya sur'atlarining oshishi, aholi sonining o'sishi va ijtimoiy infratuzilma ehtiyojlarining ortib borishi bu tarmoqda investitsiyaviy faollikni kuchaytirmoqda. Davlat tomonidan ipoteka dasturlari, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va xususiy kapitalni jalb qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida investitsiya muhitida sezilarli ijobiy siljish kuzatilmoqda. Shu bilan birga, mavjud mexanizmlarda qator kamchiliklar ham mavjud. Jumladan, resurslarni samarali taqsimlash, investitsiyalarning o'z vaqtida va to'liq qaytishini ta'minlash, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, resurs tejamkor texnologiyalarni keng qo'llash

kabi muammolar dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shunday sharoitda uy-joy qurilishida investitsiyalarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish zarurati tobora kuchayib bormoqda.

Metodologiya (Methods). Tadqiqot jarayonida bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, normativ-huquqiy va nazariy tahlil yordamida qurilish sohasida qabul qilingan davlat qarorlari, strategik dasturlar hamda “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi (2019–2030)” hujjati o‘rganildi va mavjud mexanizmlarning ustun hamda zaif tomonlari aniqlab chiqildi[3]. Statistik tahlil asosida Davlat statistika qo‘mitasi va tegishli vazirliklarning rasmiy ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, uy-joy qurilishiga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi, ipoteka kreditlari dinamikasi, ularning moliyalashtirish manbalari va o‘sish sur‘atlari o‘rganildi. Qiyosiy tahlil orqali Janubiy Koreya, Turkiya va Germaniya tajribasi tahlil qilinib, O‘zbekiston sharoitiga moslashtiriladigan amaliy mexanizmlar bo‘yicha xulosalar ishlab chiqildi. Iqtisodiy-matematik modellash tirish yordamida investitsiya loyihalarining moliyaviy, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini baholash imkonini beruvchi indikatorlar tizimi ishlab chiqildi. Shuningdek, ekspert baholash usuli orqali qurilish kompaniyalari rahbarlari, iqtisodchi olimlar va soha mutaxassislari o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazilib, investitsiyalarni boshqarish tizimining kuchli va zaif tomonlari, mavjud muammolar va takomillashtirish yo‘nalishlari aniqlandi[2].

Natijalar va muhokama (Results & Discussion). Olingan natijalar uy-joy qurilishida investitsiyaviy faollikning yuqori sur‘atlarda ortib borayotganini ko‘rsatdi. So‘nggi yillarda bu jarayon sezilarli darajada tezlashdi. Masalan, 2018-yilda uy-joy qurilishiga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 19,6 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 54,7 trillion so‘mga yetib, 2,8 barobar o‘sd[1]. Bu raqamlar davlat siyosatining amaliy natijalarini va qurilish bozoridagi kapitallar oqimini yaqqol aks ettiradi.

Jadval 1.

Uy-joy qurilishiga yo‘naltirilgan investitsiya hajmi (2018–2023)

Yil	Investitsiya hajmi (trln so‘m)
2018	19,6
2023	54,7

Ipoteka bozoridagi ko‘rsatkichlar ham ijobiy sur‘atlarni namoyon qilmoqda. 2023-yilda tijorat banklari aholiga 16,85 trillion so‘m ipoteka krediti ajratgan bo‘lib, bu 2022-yilga nisbatan 17 foizga ko‘pdir. 2025-yilning birinchi yarmida esa ipoteka kreditlari hajmi 9,44 trillion so‘mni tashkil etdi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 37,1 foiz o‘shish demakdir. Ushbu natijalar uy-joy bozorida iste’molchilarning kredit imkoniyatlari sezilarli darajada kengayib borayotganini bildiradi, lekin investitsion loyihalarning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash uchun qo‘shimcha mexanizmlarga ehtiyoj katta[4].

Jadval 2.

Ipoteka bozorining o‘shishi (2023–2025)

Davr	Ipoteka kreditlari (trln so‘m)	O‘shish (%)
2023 yil	16,85	—
2025 yil 1-y.	9,44 (6 oyda)	+37,1 (2024-yilga nisb.)

Shu o‘rinda bir nechta muhim jihatlar aniqlanadi. Avvalo, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish zarur, ya’ni investitsion obligatsiyalar chiqarish, uzoq muddatli ipoteka kreditlari va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish talab etiladi[5]. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini qo‘llash orqali arzon uy-joy va infratuzilma loyihalariga xususiy kapitalni jalb etish imkoniyati mavjud. Yana bir dolzarb yo‘nalish resurs tejankor va ekologik

texnologiyalarni moliyalashtirishdir, chunki “Yashil iqtisodiyot” strategiyasi bu jarayonni jadallashtirishni taqozo qiladi. Investitsiya loyihalarining samaradorligini baholashda moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda ijtimoiy va ekologik omillarni ham hisobga olish lozim. Bu esa uzoq muddatda nafaqat iqtisodiy o‘shishni, balki aholining turmush darajasini yaxshilashni ham ta’minlaydi[6].

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda uy-joy qurilishiga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi tez sur‘atlarda oshib bormoqda va ipoteka bozorida barqaror kengayish kuzatilmoqda. Biroq investitsiyalarni boshqarish samaradorligini oshirish uchun moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, PPP mexanizmlarini rivojlantirish, resurs tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish hamda samaradorlikni moliyaviy, ijtimoiy va ekologik ko‘rsatkichlar asosida baholash tizimini takomillashtirish zarur. Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi nafaqat uy-joy qurilishidagi investitsiyalarning iqtisodiy qaytarilishini ta’minlaydi, balki ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish va barqaror rivojlanishni jadallashtirishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Davlat statistika qo‘mitasi. (2024). Investitsiyalar va qurilish bo‘yicha hisobotlar. Toshkent: stat.uz.
2. International Energy Agency. (2019). Strategy for the transition to a green economy (2019–2030). Retrieved from <https://www.iea.org/policies/11979-strategy-for-the-transition-to-a-green-economy-for-the-2019-2030>
3. Asian Development Bank. (2023). Mortgage Market Sector Development Program (Uzbekistan). Retrieved from <https://www.adb.org/projects/51348-001/main>
4. Daryo.uz. (2024, January 25). Mortgage lending skyrockets to \$1.4bn in Uzbekistan’s commercial banks in 2023. Retrieved from <https://daryo.uz/en/2024/01/25/mortgage-lending-skyrockets-to-14bn-in-uzbekistans-commercial-banks-in-2023>

5. Uzbuild.uz. (2025, July 1). Mortgage market in Uzbekistan is growing again. Retrieved from <https://uzbuild.uz/en/news/mortgage-market-in-uzbekistan-is-growing-again-the-volume-of-loans-and-the-number-of-borrowers-have-increased-dramatically>
6. ResearchGate. (2024). Enhancing Housing Finance for Socio-Economic Stability in Uzbekistan. Retrieved from <https://www.researchgate.net/publication/380574562>

“URBANIZATSIYA SHAROITIDA AHOLINING TRANSPORT TURINI TANLASH QONUNIYATLARI” (URGANCH SHAHRI MISOLIDA)

J.Y. Jumaniyazov

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti doktorani

Anotatsiya

Ushbu maqola Urganch shahri misolida shahar aholisi transport turini tanlash qonuniyatlarini o'rganadi. Maqolada urbanizatsiya sharoitida jamoat va shaxsiy transport vositalari, barqaror harakatchanlik, ekologik jihatlar, aholi transportga bo'lgan ustuvorligi va aqlli transport tizimlarining roli tahlil qilinadi. Maqola shahar transport tizimini rivojlantirish va aholining kundalik harakatchanligini optimallashtirishga qaratilgan tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Аннотация

В статье исследуются закономерности выбора вида транспорта городскими жителями на примере города Ургенч. Анализируются общественный и личный транспорт, устойчивая мобильность, экологические аспекты, приоритет населения в транспорте и роль интеллектуальных транспортных систем в урбанизации. В статье также представлены рекомендации, направленные на развитие городской транспортной системы и оптимизацию повседневной мобильности населения.

Abstract

This article studies the patterns of urban residents' choice of transport mode using the example of the city of Urgench. The article analyzes public and private transport, sustainable mobility, environmental aspects, the priority of the population for transport and the role of intelligent transport systems in urbanization. The article